

**SALOHIDDIN AYYUBIYNING SALIBCHILARGA QARSHI KURASHI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15015552>

**Rajabova Sabina**

*TDPU Tarix fakulteti II bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Oʻrta asrlarda islom dunyosida yuz bergan eng muhim voqealardan biri bu – Salohiddin Ayyubiy tomonidan Quddusning qaytarib olinishidir. Ushbu maqolada Salohiddinning salibchilarga qarshi kurashi tahlil qilinadi. Maqolada avvalo Salohiddinning hokimyat tepasiga kelishi va musulmonlar va Salibchilar oʻrtasida ziddiyatlar yoritiladi. Shuningdek maqolada Quddusning zabt etilishi va Richard Sheryurak bilan boʻlgan kurashi, salibchilarga qarshi urushning natijasi ham muhokama qilinadi.*

**Kalit soʻzlar:** *Salohiddin Ayyubiy, Misr, Quddus, musulmonlar, Salib yurishlari, Xattin janggi, Richard Sheryurak, musulmon davlatlari.*

**Аннотация:** *Одним из важнейших событий в исламском мире в Средние века стало возвращение Иерусалима под власть мусульман Салах ад-Дином Айюби. В данной статье анализируется борьба Салах ад-Дина против крестоносцев. Вначале рассматривается его приход к власти, а также противоречия между мусульманами и крестоносцами. Кроме того, в статье обсуждаются завоевание Иерусалима, противостояние с Ричардом Львиное Сердце и итог войны против крестоносцев.*

**Ключевые слова:** *Салах ад-Дин Айюби, Египет, Иерусалим, мусульмане, Крестовые походы, битва при Хаттине, Ричард Львиное Сердце, мусульманские государства.*

**Annotation:** *One of the most significant events in the Islamic world during the Middle Ages was the recapture of Jerusalem by Salah ad-Din Ayyubi. This article analyzes Salah ad-Din's struggle against the Crusaders. It first examines his rise to power and the conflicts between Muslims and the Crusaders. Additionally, the article discusses the conquest of Jerusalem, his confrontation with Richard the Lionheart, and the outcome of the war against the Crusaders.*

**Keywords:** *Salah ad-Din Ayyubi, Egypt, Jerusalem, Muslims, Crusades, Battle of Hattin, Richard the Lionheart, Muslim states.*

Salohiddin Ayyubiy oʻrta asrlar Sharq tarixida muhim shaxs boʻlib, u nafaqat harbiy lider sifatida, balki davlat va din arbobi sifatida ham tanilgan. Abu Muzaffar Yusuf ibn Ayyub ibn Shozi yaʼni Salohiddin Ayyubiy nomi bilan mashhur boʻlgan ulugʻ sarkarda va oliyjanob hukmdor hijriy 532-yilda (milodiy 1137) yili Tikrit shahrida tugʻilgan. Keyinchalik Misr va Shom yerlari sultoni boʻlgan bu sarkardaning asl ismi Salohiddin boʻlmagan. Bu nom unga berilgan kunya boʻlib “Dinni isloh etuvchi” maʼnosini anglatadi. Qayd etish

kerakki Salohiddin o'z hayoti orqali bu nomga munosib ekanligini isbotlay oldi.<sup>1</sup> XII asrga kelib Abbosiylar xalifaligi uch qismga bo'linib ketadi. Misrda shia oqimidagi Fotimiylar sulolasi hukmronlik qilib, ular Bag'doddagi xalifa hokimyatini tan olmas edi. Kichik Osiyo salibchilarning, Mesopotamiya va Suriya esa Saljuqiy sulton Nuriddin Zangiyning qo'li ostida bo'lgan. Salohiddin Ayyubiy harbiy faoliyatini amakisi Asad ad-Din shirkuh qo'li ostida kichik zobit unvoni bilan boshlagan. 1171-yilda amakisi bilan Misrga yurish qiladi. Shirkuh Misrdagi Fotimiylar sulolasining hukmronligigga barham berdi. 1174-yilda Asad ad-Din Shirkuh vafot etgach, Salohiddin Misr mustaqilligini e'lon qilib Ayyubiylar davlatini qurdi.<sup>2</sup> Shu tariqa Salohiddin hokimyat tepasiga keldi. U musulmon davlatlarini birlashtirishga va salibchilarga qarshi kurashni kuchaytirishga katta e'tibor qaratadi. Uning oqilona siyosati va adolatli boshqaruvi tufayli Ayyubiylar davlati Yaqin Sharqning eng qudratli davlatlaridan biriga aylanadi.

Salohiddin Ayyubiyning hukmronlik davrida Yevropa va Yaqin Sharq hududlarida siyosiy va harbiy jarayonlar anchagina faollashgan bo'lib, buning asosiy sababi Salib yurishlarining hali ham davom etayotganida edi. Salib yurishlari deganda Yevropa feodallarining XI asr oxiridan to XIII asrning oxirigacha uzoq vaqt davomida Yaqin Sharq – Suriyada, Falastinda, Misrda, Bolqon yarimorolida, Kipr orolida va boshqa joylarda olib borilgan harbiy mustamlakachilik ekspeditsiyasi ko'zda tutiladi. Tashqi jihatdan bu ekspeditsiyalar diniy ruhdagi ekspeditsiyalar edi, chunki katolik cherkovi bu kurashni “butning yarim oyga, xristianlikning islomga qarshi kurashidir deb e'lon qiladi.<sup>3</sup> Musulmonlar va xristianlar o'rtasidagi raqobar nafaqat harbiy harakatlar bilan balki diniy va siyosiy kurashlar bilan kechdi. Diniy jihatdan qarajak xristianlar Quddus va Muqaddas qabrni o'z nazoratiga olishni istar edi. Musulmonlar uchun esa Quddus uchinchi muqaddas shahar hisoblanib uni himoya qilish farz hisoblangan. Aynan mana shu shahar uchun musulmonlar va xristianlar ko'p marotaba to'qnash kelishdi. XI asrdan beri musulmon dunyosi va Yaqin Sharq hududlari qiyin vaziyatni boshdan kechirayotgan edi. Salibchilar 1099-yilda Quddusni bosib olgandan beri musulmonlar bu shahardan mahrum bo'lib qolishgan edi. Shuningdek salibchilar shaharni faqatgina egallash bilan cheklanib qolmay, musulmon bolalarni, xotin-qizlarni, yoshlarni qatl ettiradi. Bu voqea butun Yaqin Sharqni larzaga soldi. Salibchilarning Yaqin Sharqqa bostirib kirishi musulmon davlatlarini siyosiy jihatdan zaiflashtirdi. Xristian davlatlari Sharqda mustahkam o'rnashib olishga harakat qilayotgan bir vaqtda musulmon hukmdorlarining ham qarshiligiga duch kelishdi. Ulardan biri Misr sultoni - Salohiddin Ayyubiy edi.

Misr va Suriyani birlashtirgan Salohiddin islom olamining yetakchisiga aylanib bordi va o'z oldiga Quddusdek muqaddas shaharni salibchilardan ozod qilishdek oliy maqsadni qo'ydi. Salohiddin 1170-yilda salibchilar ustiga ilk yurishini amalga oshiradi. Remle yaqinida Quddus qiroli Balduin IV bilan bo'lib o'tgan jangda Salohiddin yengiladi. Shundan so'ng

<sup>1</sup> Ахмад Мухаммад Турсун Дунёни тебратган етти буюк: Тошкент-2021, 319-б.

<sup>2</sup> Murodov, O. (2015). Quddus va uning tarixiy ahamiyati. Tashkent: O'zbekiston

<sup>3</sup> Z. Xoliqov, O'rta asrlar tarixi Termiz-2009, 38-bet

Ayyubiylar sulmoni Qohiraga qaytishga majbur bo'ldi. Salohiddin Quddusni qaytarib olishga qasam ichgan edi. Shu sababdan navbatdagi yurishga har tomonlama tayyorgarlik ko'radi. U 1182-yilda Mosul amirligiga hujum qilib, ularni bo'ysundiradi. Keyinchalik Salohiddin salibchilar bilan ittifoqda bo'lgan Aleppo qal'asini ham egallaydi. Sulton salibchilarning barcha ittifoqchilarini birma-bir yo'q qilgach, nasroniylar ustiga yurish qilish uchun qulay fursat kutdi.<sup>4</sup> Salohiddin nafaqat harbiy tayyorgarlik ko'rdi, balki siyosiy jihatdan ham musulmonlarni birlashtiriga harkat qildi. U sunniy Suriya va shia Misr o'rtasidagi bo'linishni tugatdi. Bir qarashda Salohiddin islomni Nildan Frotgacha birlashtirdi. Bu vaqtga kelib Quddus qirolligida vaziyat anchagina taranglashgan edi. Bunga asosiy sabablardan biri Quddus qirolligi Balduin IV moxov kasalligidan vafot etib, qirolning olti yoshli o'g'li Balduin V taxtga o'tirdi. Yangi qirol hali yosh bo'lganligi sababli unga atrofdagilarning ta'siri yuqori edi, ayniqsa Gi de Luzinyan va graf Reno de Shatilon hokimiyatni o'z qo'llariga olishga harakat qilishdi. Yana bir asosiy sabablaridan biri esa Quddus qirolligi baroni Reno de Shatilon buzg'unchiligi bilan mashhur edi, u musulmon karvonlarini talab, sun'iy ravishda notinchlik chiqarib salibchilarni ham, musulmonlarni ham lan'atiga sazovor bo'lgan edi. Uning qaroqchiligi tufayli Tir, Sayda, Askalon, Antioxiya va boshqa salibchilarga qarashli dengizbo'yi shaharlariga savdo karvonlari kelishi to'xtadi, bu esa shaharlar inqirozga uchrashiga sabab bo'ldi. Quddus baronini tiyib qo'yish haqida musulmonlar tomonidan ko'p ogohlantirildi. Uni tiyib qo'yishga qirolning kuchi yetmadi. G'arbiy Osiyoda eng kuchli hukmdorga aylangan Salohiddin Ayyubiy esa bunga jum qarab tura olmas edi. U qaroqchilarni jazolash va Quddusni

Xattin janggi musulmonlar va xristianlar to'qnash kelgan eng katta janglardan biri edi. 1187-yil bahorida Salohiddin Falastinga bostirib kirish uchun kuchlarni tayyorlay boshladi. Misr, Suriya, Jaziradan qo'shinlarini olib chiqdi. Qo'shinning asosiy qismini 12 ming otliq askar va 30 ming piyoda askardan iborat ulkan qo'shin to'pladi. Bunday katta armiyani yig'ishning o'zi kichik ish emas edi. Iyun oyi oxrida Salohiddin yakuniy rejani ishlab chiqdi, qo'shinlarni tayyorlashni tugatdi va uning ulkan armiyasi intizom bilan jang qilishi uchun jangovar tuzilmalarni tashkil qildi. Uchta asosiy qismga tuzdi: o'ng va chap qanotlarga boshliq etib Taki al-Din va Keukburi, markazga shaxsan Salohiddin qo'mondonlik qildi.<sup>5</sup> Bu vaqtda Quddusda 2 ming ritsar va 15 mingtacha piyoda yig'ish mumkin edi, xolos. Lekin bu kam sonli qo'shin ham mahalliy aholi emas balki Yevropadan ko'chib kelganlar edi. 1187-yil 5-iyunda Tiberiya shahri yaqinidagi jangda salibchi knyazlar qo'shinining ozligini ko'rishdi. 1187-yil iyulda Salohiddin Tiberiyani oldi va Xattin tepaligida o'rnashgan salibchilarga qaqshatqich zarba berdi. Salibchilar qo'shini tor-mor bo'ldi. Endi Salohiddinda Quddusni butunlay egallash uchun qulay imkoniyat yuzaga keldi.

<sup>4</sup> <https://qalampir.uz/uz/news/k-uddusning-fat%D2%B3-etilishi-salo%D2%B3iddin-al-ayyubiy-salibchilarni-k-anday-yer-tishlatgan-49843>

<sup>5</sup> Томас Эсбридж Крестовые походы. Войны Средневековая за Святую землю 337-338-с, Москва-2013

1187-yil sentyabrda Salohiddin Quddusga yurish boshladi. Uning aholiga ahli omonlik berish evaziga shaharni topshirish haqidagi murojatiga quddusliklar rad javobini qaytarishdi. Salohiddin shaharni qamal qildi (Quddus 1187-yil 20-sentyabrdan 2-oktyabrgacha qamal qilingan). Salibchilar hech qayerda yordam kelmasligini anglab Salohiddin bilan Quddusni topshirish bo'yicha muzokaralarini olin borishdi. Salohiddin to'lov evaziga quddusliklarga ozodlik berish majburiyatini oldi. Erkaklar 10, ayollar 5, bolalar 2 dinordan to'lashdi. To'lashga hech vaqosi bo'lmaganlar evazsiz ozod qilindi. Shunday qilib Quddus 2-oktyabr kuni taslim bo'ldi. Salohiddinning g'alabalari G'arbdagi uchinchi salib yurishlarining boshlanishiga turtki bo'ldi.<sup>6</sup> Quddusning egallanishi musulmonlar uchun yirik tarixiy voqea edi. Quddus musulmonlar uchun diniy, tarixiy va siyosiy jihatdan ulkan ahamiyatga ega shahar edi. Shahar egallanganidan so'ng ochiq deb e'lon qilinadi, o'zga din vakillarining ham huquqlari kafolotlanadi. Salohiddinning Quddusni zabt etishi uning adolatlilik va saxovatini namoyon qildi. Salibchilar shaharni egallaganida ommaviy qirg'in qilgan edi. Salibchilar Salohiddinning asosiy dushmani bo'lsa ham begunoh Quddus aholisi aziyat chekmasligi uchun salibchilar bilan muzokara olib bordi va shaharni qon to'kmasdan egalladi bu esa islom dunyosida uning obroyini yanada oshirdi va eng buyuk sarkardalardan biriga aylandi. Quddusning egallanishi musulmonlar orasida birlikni kuchaytirdi, shuningdek keying salib yurishlarida ular uchun ilhom manabi bo'lib ximat qildi.

Quddusni qaytarib olish uchun ingliz, fransuz, german qirollari ishtirokida III salib yurishlarini boshlandi. 1188-yildan boshlab Yevropada tayyorgarliklar boshlanib ketadi. Bu safargi yurish oldingilariga nibatan juda jiddiy tashkillashtirildi, katta mablag' ham ajratildi. Yevropa qirollaridan eng ko'p Salohiddinga qarshi kurashgan Richard Sheryurak (1189-1199) bo'ldi. U katta g'alabalarga erishib, Quddusga jiddiy xavf sola boshladi. Richard Sheryurak 1191-1192 yillar davomida Salohiddinga qarshi urush harakatlarini olib bordi, ammo Quddusni egallay olmaydi. Urush 1192-yil 2-sentabrda sulh shartnomasi tuzish bilan yakunlanadi.

Shu tariqa Salohiddin Ayyubiy nafaqat harbiy balki diplomatik va diniy rahbar sifatida ham o'zini namoyon etadi. U musulmonlar orasida birlik va hamjihatlikni ta'minlashga intildi, bu esa o'z vaqtida ularning kuchini kuchaytirdi va krossaderlarga qarshi kurashda muhim omil bo'ldi. Uning merosi bugungi kunda ham musulmonlar orasida hurmat bilan yod etiladi va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan voqealar qatorida o'z o'rnini egallaydi.<sup>7</sup>

Xulosa qilib aytganda Salohiddin Ayyubiy nafaqat buyuk sarkarda balki adolatparvar va dono hukmdor sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan shaxsdir. Xalqi va butun musulmon olami uchun 24 yoshidan beri hayoti hayoti janga-u jadalda kechgan. U o'zining oldiga Quddusni musulmonlarga qaytarishdek sharafli maqsadini qo'ydi va bunga erishdi. U salibchilarga qarshi kurashda faqat harbiy kuchga emas balki diplomatiya va insonparvarlik

<sup>6</sup> Шодмон Воҳидов, Алишер аҚодиров, Шарқнинг машҳур сулолари 296-297-б, Тошкен-2013

<sup>7</sup> Qo'ziyev, A (2011). Salohiddin Ayyubiy va uning davri. Toshkent: Sharq.

tamoyillariga tayanib jang qildi. Uning 1187-yilda Quddusni zabt etishi uning nomini tarixga abadiy muhrladi. Salohiddin Ayyubiy salibchilarga qarshi kurashi adolatni tiklash va mintaqada tinchlik o'rnatish uchun edi. U o'zining donishmandligi, strategik tafakkuri va harbiy qobiliyati bilan nafaqat o'z davrida balki keyingi asrlarda ham davlat boshliqlari uchun namuna bo'lib kelmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ахмад Муҳаммад Турсун Дунёни тебратган етти буюк: Тошкент-2021,3196.
2. Murodov, O. (2015). Quddus va uning tarixiy ahamiyati. Tashkent: O'zbekiston
3. Z. Xoliqov, O'rta asrlar tarixi Termiz-2009, 38-bet
4. <https://qalampir.uz/uz/news/k-uddusning-fat%D2%B3-etilishi-salo%D2%B3iddin-al-ayyubiy-salibchilarni-k-anday-yer-tishlatgan-49843>
5. Томас Эсбридж Крестовые походы. Войны Средневековая за Святую землю 337-338-с, Москва-2013
6. Шодмон Воҳидов, Алишер аҚодиров, Шарқнинг машҳур сулолари 296-297-б, Тошкен-2013
7. Qo'ziyev, A (2011). SalohiddinAyyubiy va uning davri. Toshkent: Sharq.